



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 442 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zarafuz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugliy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning.....	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir qizi</i>	
Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland	171
<i>Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi</i>	
Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	175
<i>Akbarova Saidaxon Rustamovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli	180
<i>Atadjanova Shaira Xalilovna, Umarkulov Muxtorali Islomkulovich</i>	

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish.....	185
<i>Azamatova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili.....	189
<i>Babayeva Dilnoz Xaydarovna</i>	
O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS)	192
<i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	
Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili.....	195
<i>Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi</i>	
Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari.....	199
<i>Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi</i>	
Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications.....	203
<i>Egamova Munisa Khakim kizi</i>	
Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish.....	208
<i>Kodirov Akbar Shuxratovich</i>	
Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools	213
<i>Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi</i>	
O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari.....	218
<i>Mirsidikova Aziza Mirvohidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari	221
<i>Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oprovna</i>	
Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	226
<i>Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar.....	229
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish	233
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoxid qizi</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	237
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish	242
<i>Qurbonova G. M.</i>	
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari	245
<i>Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi</i>	
Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash	248
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	252
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	254
<i>Shaymatova Aziza</i>	
Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar.....	259
<i>Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	265
<i>Suyarova Orzigul Sodiq qizi</i>	



Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik.....	269
To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish	273
Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna	
Ta'limga o'qib tushinishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari.....	276
Umarov Bahrom Norboyevich	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	281
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati.....	286
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar	289
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri	292
Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna	
Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish.....	297
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Nurmuhamedova Dilshoda Zaynobiddin qizi	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	302
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Ortodontiyada mioterapiya: miogimnastik dentoalveolyar apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi	305
Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna	
Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков	308
Умрихина Виктория Игоревна	
21St Century Dental Innovation Technologies: An Overview	314
Khojimurodov Burkhon Ravshanovich	
Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах	317
Шарипова Шахноза Шавкат кизи	
Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка.....	321
Эшонкулов Хамрокул Маматкулович	
Yosh sportchilarda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional mashqlarning ahamiyati.....	326
Aminov Botir Umidovich	
Nutqiy faoliyatda fikr va til tizimlari.....	330
Axmedova Muyassar Xadimatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish psixologiyasi	333
Axmedova Muyassar Xadimatovna, Halimova Gulasal Xamroqulovna	
10–12 yoshli tennischilarda texnik tayyorgarlik samaradorligini oshirish uslubiyati	336
Axmedova Nafisa Isaxodjayevna	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalarining ilmiy tadqiqi.....	340
Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna	
Musobaqa oldi bosqichida tennischilarning maxsus jismoniy sifatlarini kompleks mashqlar yordamida rivojlantirish uslubiyati.....	345
Azamatov Abdullo Isaxo'ja o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuv	349
Choriyeva Durdona Anvarovna, Po'latova Mahfuza To'liqin qizi	
Xorij olimlari tadqiqotlarida mustaqillik sifatini rivojlantirishga oid yondashuvlar	354
D. A. Saliyeva	
Milliy adabiyot namunalari yordamida talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	358
Erallyeva Dilnoza Oybek qizi	

Oliy ta'lim tizimida tyutorlik institutini rivojlantirishning dolzarb masalalari	362
<i>Kandaxarov Zafar Ishratovich, Tajibayeva Komila Taxirjonovna</i>	
Integrating Communicative and Task-Based Approaches in English Language Teaching Within a Learner-Centered Framework	366
<i>Madinabonu Farkhodova</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish usullarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	370
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari	373
<i>Mamatova Dilnoza Bekpo'latovna</i>	
7-sinf biologiya kursini o'qitishda o'quvchilarning metodologik savodxonligini shakllantirish	377
<i>Mirzayeva Nigoraxon Ibrohimjon qizi, Azimov Bekjon Ibrohimjon o'g'li</i>	
10–12 yoshli belbog'li kurashchilarini o'quv-mashg'ulot jarayonida koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish	380
<i>Mirzoqulov Sh. A.</i>	
Pedagog xodimlarning malaka-mahoratini oshirish – samaradorlik omili	384
<i>Musurmonova Mariya Burxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tizimli yondashuv asosida boshqarishning pedagogik mexanizmlari	387
<i>Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi</i>	
Zamonaviy o'zbek tilida so'z tartibi va sintaksis xususiyatlari	392
<i>Narimova Gulnora Abdumannonova</i>	
Ilmiy va innovatsion boshqaruv yondashuvlari orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalari	396
<i>Norbo'tayev Baxtiyor Abduraximovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida algebraik fikrlashni rivojlantirishda mental arifmetikaning o'rni va roli	400
<i>Nurillayev Samad Safarovich, Qodirova Nilufar</i>	
Bolalarning sportga oid ta'lim-tarbiya madaniyatini shakllantirish omillari va yo'nalishlari	405
<i>Ochilov Jonibek Abdo'xomid o'g'li, Rishad Badayev</i>	
Raqamli ta'lim jarayonida pedagoglarning AKT va media savodxonligini oshirish bo'yicha samarali metodik yondashuvlar	408
<i>Rashidov Sherzod Abdirayimovich</i>	
Didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarning ona tiliga doir bilimlarini mustahkamlash	413
<i>Raxmataliyev Sherzod</i>	
Bosh harflar ramzga aylanganda: monogrammaning zamonaviy grafik dizayndagi ahamiyati	416
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish usullari	420
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Tursunova Saida Soliyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida noverbal muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodlari	423
<i>Xolmo'minova Bahora Abdujalolovna</i>	
Frustratsiya holatining psixologik mohiyati va uni yengish mexanizmlari	426
<i>Y. E. Sobirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklarni hikoya qilishda motiv va syujetning tarbiyaviy ahamiyati ("Pahlovon Rustam" ertagi misolida)	430
<i>Zulayxo Nazarova, Farangiz Mardiyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb saytlari sifatini oshirishda sun'iy intellektdan neft va gaz sohasida foydalanish muammolari	433
<i>Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии	437
<i>Шадиева Нигора Шариповна, Нуруллоева Нилуфар Рузимбоевна</i>	

FRUSTRATSIYA HOLATINING PSIXOLOGIK MOHIYATI VA UNI YENGISH MEXANIZMLARI

Y. E. Sobirov

TAFU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada frustratsiya hodisasining psixologik mohiyati, kelib chiqish sabablari, turlari, uni o'lchash va yengish mexanizmlari, emotsional holatlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Maqolada frustratsiya shaxsning emotsional barqarorligiga, ijtimoiy moslashuvchanligiga va o'zini anglash jarayonlariga ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: frustratsiya, stress, emotsional tanglik, agressiya, sublimatsiya, psixodiagnostika.

Abstract: This article analyzes the psychological nature of the phenomenon of frustration, its causes, types, as well as the mechanisms for measuring and overcoming it. Frustration is examined in terms of its impact on emotional stability, social adaptation, and processes of self-awareness.

Key words: frustration, stress, emotional tension, aggression, sublimation, psychodiagnostics.

Аннотация: В данной статье анализируются психологическая сущность феномена фрустрации, причины его возникновения, виды, а также механизмы измерения и преодоления. Фрустрация рассматривается с точки зрения её влияния на эмоциональную устойчивость личности, социальную адаптацию и процессы самосознания.

Ключевые слова: фрустрация, стресс, эмоциональное напряжение, агрессия, сублимация, психодиагностика.

KIRISH

Inson hayoti davomida maqsad va intilishlarga erishish yo'lida turli to'siqlarga duch keladi. Bu to'siqlar natijasida yuzaga keladigan hissiy tanglik, hafsalasizlik, g'azab yoki umidsizlik holatlari psixologiyada frustratsiya deb ataladi. Frustratsiya hodisasi shaxsning ruhiy holati, ijtimoiy moslashuvi va motivatsion tizimi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u zamonaviy psixologiya tadqiqotlarining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda frustratsiya masalasi nafaqat klinik psixologiyada, balki ta'lim, boshqaruv, harbiy psixologiya va shaxs rivojlanishiga doir sohalarida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, frustratsiyaning psixologik mohiyatini aniqlash va uni yengish mexanizmlarini o'rganish insonning ruhiy sog'lomligini saqlash hamda barqaror ijtimoiy faoliyatni ta'minlashda dolzarb masaladir ^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOT SHARHI

"Frustratsiya" atamasi lotincha frustratio – "umidsizlik", "maqsadning buzilishi" ma'nolarini bildiradi. Birinchi bor bu termin XX asr boshlarida psixologiya faniga kiritilgan va shundan so'ng turli yo'nalishlar tomonidan keng talqin etilgan.

Frustratsiya fenomeni dastlab Z. Freyd va keyinchalik D. Dollard, N. Miller, L. Berkowitz kabi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Xususan, Dollard va Millerning "frustratsiya–agressiya" nazariyasiga ko'ra, frustratsiya ko'pincha agressiv xulq-atvorning psixologik manbai hisoblanadi. Ammo zamonaviy psixologiyada bu hodisa faqat agressiya bilan emas, balki shaxsning moslashuv strategiyalari, coping mexanizmlari va emotsional barqarorligi bilan ham bog'liq holda o'rganiladi. Z. Freydning psixoanalitik yondashuvida frustratsiya insonning instinktiv istaklari (id) bilan ijtimoiy me'yor va cheklovlar (superego) o'rtasidagi ziddiyat natijasida yuzaga keladigan ichki ruhiy tanglik sifatida izohlanadi ^[1]. Bunday holatda shaxsning ichki konfliktlari turli nevrotik reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Bixevioristlar fikricha, har qanday frustratsiya agressiyani keltirib chiqaradi, ya'ni maqsadga erishish to'sqinlikka uchrasa, inson g'azab yoki salbiy reaksiya bilan javob beradi ^[2].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot frustratsiya fenomenining psixologik mohiyatini, uning xavotir bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida zamonaviy psixologiyaning nazariy va empirik metodologik yondashuvlariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi ilmiy yondashuvlarga asoslanadi:

1. **Tizimli yondashuv** – frustratsiyani shaxs psixikasining tarkibiy qismi sifatida, emotsional holatlar tizimida (xavotir, agressiya) o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish imkonini berdi;
2. **Faoliyat yondashuvi** – frustratsiyaning shaxs faoliyati va xulq-atvoriga ta'sirini o'rganishda qo'llanildi;
3. **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** – frustratsiya namoyon bo'lishining individual-psixologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi;
4. **Yosh psixologiyasi yondashuvi** – o'smirlik va ilk o'spirinlik davrida frustratsiyaning rivojlanish xususiyatlarini tushuntirish imkonini berdi.

Gumanistik psixologiya namoyandalari A. Maslou, K. Rodjerslar bu hodisani shaxsning o'zini ro'yobga chiqarish (self-actualization) ehtiyoji to'silib qolgan holat sifatida izohlaydi [3]. Ularning fikricha, frustratsiya shaxsning o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini chegaralovchi ruhiy to'siqdir. Frustratsiya ko'pincha insonning maqsadiga erishish jarayonida to'siq yoki to'xtov paydo bo'lishi bilan bog'liq. Sabablariga ko'ra u ichki va tashqi omillarga ajratiladi [4].

Ichki omillar:

- past o'zini baholash;
- ishonchsizlik yoki qo'rquv;
- ichki ziddiyatlar;
- emotsional beqarorlik.

Tashqi omillar:

- ijtimoiy, iqtisodiy yoki ma'muriy to'siqlar;
- jamiyat yoki atrof-muhit cheklavlari;
- resurs yetishmasligi;
- boshqa shaxslarning qarorlari yoki qarshiligi.

Mazmuniga ko'ra esa frustratsiya quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Motivatsion frustratsiya – maqsadga erisha olmaslik tufayli yuzaga keladi.
2. Kognitiv frustratsiya – tushunmovchilik yoki bilim yetishmasligi sababli.
3. Emotsional frustratsiya – sevgi, e'tibor, qo'llab-quvvatlash ehtiyojlari qondirilmaganda.
4. Ijtimoiy frustratsiya – jamiyatdagi nohaqlik va cheklovlar natijasida.
5. Rol frustratsiyasi – shaxsning ijtimoiy roli bilan bog'liq ziddiyatlarda namoyon bo'ladi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Frustratsiya darajasini aniqlash uchun psixologiyada bir qator metodikalar qo'llaniladi. Eng mashhuri – P. F. Rosenzweigning frustratsiya testidir. Bu testda respondentga bir qator konfliktli ijtimoiy vaziyatlar beriladi va ularning reaksiyalari uch yo'nalishda baholanadi:

Reaksiya turi	Tavsifi
Ekstrapunitiv	Aybni tashqi shaxslarga yoki vaziyatga yuklaydi.
Intropunitiv	Aybni o'ziga qaratadi, o'zini ayblaydi.
Impunitiv	Vaziyatni obyektiv tahlil qiladi, ayb yuklamaydi.



Ushbu test yordamida shaxsning stressga bardoshliligi, agressivlik darajasi va moslashuvchanligi aniqlanadi ^[6]. Shuningdek, frustratsiyani o'lchashda R. Lazarusning stressni baholash shkalasi, Cattellning 16 PF shaxs testi, va Spielbergerning tashvish (xavotir) shkalasi kabi metodikalar ham yordamchi sifatida qo'llaniladi ^[7].

Psixologiyada frustratsiya, xavotir va agressiya shaxsning emotsional sohasiga oid bo'lib, ular o'zaro murakkab sabab-oqibat munosabatlari orqali bog'langan. Ushbu uchlik ayniqsa o'smirlik va ilk o'spirinlik davrida kuchli namoyon bo'ladi, chunki bu bosqichda emotsional barqarorlik hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Frustratsiya shaxs uchun ahamiyatli ehtiyoj yoki maqsadning to'sqinlikka uchrashi natijasida yuzaga keladi. Ushbu holat birlamchi emotsional reaksiya sifatida xavotirni keltirib chiqaradi, xavotir esa o'z navbatida agressiv yoki destruktiv xulq-atvor ehtimolini oshiradi. Shu sababli frustratsiya ko'pincha xavotir va agressiyaning psixologik manbai sifatida qaraladi. Xavotir frustratsion vaziyatlarda shaxsning ichki beqarorlik holatini aks ettiradi. Frustratsiya jarayonida shaxs:

- vaziyatni nazorat qila olmaslik hissini boshdan kechiradi;
- kelajak natijalariga nisbatan noaniqlik sezadi;
- o'z imkoniyatlarini past baholay boshlaydi.

Bu holat reaktiv xavotirning kuchayishiga olib keladi. Xususan, Kurt Lewin nazariyasiga ko'ra, frustratsiya shaxsning "psixologik maydoni"da ichki zo'riqishni yuzaga keltirib, emotsional beqarorlikni kuchaytiradi. Xususan ontogenez taraqqiyotining o'smir va ilk o'spirinlik davrida frustratsiya bilan bog'liq xavotir quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- o'ziga ishonchsizlik;
- ijtimoiy bahodan qo'rquv;
- muvaffaqiyatsizlikni oldindan kutish;
- ichki tanglik va xavf hissi.

Natijada frustratsiya uzoq davom etsa, xavotir barqaror shaxsiy xususiyat darajasiga ko'tarilishi mumkin. Xavotir ko'pincha ichki zo'riqish sifatida kechadi. Agar shaxsda:

- stressga chidamlilik past bo'lsa;
- koping strategiyalari yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa;
- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sust bo'lsa,
- unda xavotir tashqi agressiya orqali kompensatsiya qilinadi.

Bu holat ayniqsa o'smirlik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi, chunki bu davrda impulsivlik yuqori bo'ladi. Shuningdek, Albert Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, agressiv xatti-harakatlar frustratsiya fonida o'rganilgan xulq modeli sifatida ham shakllanishi mumkin deb keltiradi.

Umuman olganda, frustratsiya va xavotir o'zaro uzviy bog'langan psixologik hodisalar bo'lib, ular shaxs emotsional sohasining murakkab dinamikasini tashkil etadi. Frustratsiya xavotirni kuchaytiradi, xavotir esa agressiv yoki destruktiv reaksiyalar uchun psixologik zamin yaratadi. Ushbu bog'liqlikni chuqur o'rganish o'smir va ilk o'spirinlarning emotsional holatini tushunish hamda psixokorreksion ishlarni samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Inson frustratsiya holatiga turlicha psixologik javob beradi. Eng keng tarqalgan reaktsiyalar quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

1. **Agressiya** – tashqi to'siqqa qarshi hujumkor reaksiya.
2. **Regressiya** – bolalarcha xulqqa qaytish yoki mas'uliyatdan qochish.
3. **Proeksiya** – aybni boshqalarga yuklash.
4. **Ratsionalizatsiya** – muvaffaqiyatsizlikni "oqlovchi" izoh topish.
5. **Qochish (evazionizm)** – muammodan chetlashish, e'tiborni boshqa narsaga qaratish.
6. **Sublimatsiya** – negativ energiyani ijobiy faoliyatga yo'naltirish (sport, ijod, mehnat).

Frustratsiyani oldini olish mexanizmlari

Psixologik nuqtai nazardan, frustratsiyani to'g'ri boshqarish – shaxsning psixologik immuniteti va stressga bardoshliligini oshiradi. Zamonaviy psixologiyada frustratsiyani yengishning bir necha samarali usullari ishlab chiqilgan bo'lib ularga quyidagilar kiradi:



1. **Kognitiv qayta baholash** – vaziyatni ijobiyroq talqin qilish;
2. **Emotsional o'zini nazorat qilish** – meditatsiya, nafas mashqlari, autogen mashqlar orqali his-tuyg'ularni boshqarish;
3. **Realistik maqsad qo'yish** – haddan tashqari ambitsiyani kamaytirish;
4. **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash** – yaqinlar bilan muloqot, psixolog yordami;
5. **Sublimatsiya** – ichki energiyani ijodiy yoki foydali faoliyatga burish.

Ushbu mexanizmlar frustratsiyani ijobiy yo'naltirish orqali shaxsning o'zini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki Frustratsiya – inson ruhiy hayotining tabiiy, lekin murakkab holatlardan biridir. U maqsad va to'siq o'rtasidagi ziddiyat natijasida yuzaga kelib, shaxsning emotsional, motivatsion va kognitiv tizimlariga ta'sir ko'rsatadi. Frustratsiyani boshqarish va to'g'ri yengish mexanizmlarini shakllantirish shaxsning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi hamda ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi. Shunday qilib, frustratsiyani faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki shaxsiy o'sish va o'zini anglash jarayonini faollashtiruvchi psixologik imkoniyat sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

O'tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, frustratsiya shaxs psixik hayotining muhim va murakkab hodisalaridan biri bo'lib, u ehtiyojlar, maqsadlar va intilishlarning qondirilmasligi natijasida yuzaga keladigan emotsional-psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi. Frustratsiya fenomenini inson faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va emotsional barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bir qancha tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, frustratsiya ko'pincha xavotir va agressiya kabi salbiy emotsional holatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Frustratsion vaziyatlarda shaxsda ichki zo'riqish kuchayadi, vaziyat ustidan nazorat hissi pasayadi va bu holat reaktiv hamda barqaror xavotirning shakllanishiga olib keladi. O'z navbatida, xavotir darajasining ortishi agressiv yoki destruktiv xulq-atvor reaksiyalarining yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, o'smirlar va ilk o'spirinlik davrida frustratsiya yaqqolroq namoyon bo'lib, bu yosh davrlariga xos bo'lgan emotsional beqarorlik, impulsivlik, o'zini anglash jarayonining murakkabligi bilan izohlanadi. Ushbu bosqichlarda frustratsiya shaxs rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ijtimoiy moslashuv jarayonini qiyinlashtirishi va psixologik muammolarning chuqurlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, frustratsiya faqat destruktiv hodisa emasligi, balki ma'lum sharoitlarda shaxsning moslashuvchanligini, muammolarni hal qilish qobiliyatini va ichki resurslarini faollashtiruvchi konstruktiv omil sifatida ham namoyon bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Bu holat shaxsning individual psixologik xususiyatlari, coping strategiyalari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasiga bog'liqdir.

Umuman olganda, frustratsiya fenomenini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va unga kompleks psixologik yondashuvni qo'llash shaxsning emotsional barqarorligini ta'minlash, xavotir va agressiyaning oldini olish hamda sog'lom shaxs rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Frustratsiya muammosini o'rganish va oldini olishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlarni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi: Psixodiagnostik faoliyatni kuchaytirish, psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish, frustratsiyaga chidamlilikni oshirishga qaratilgan treninglar tashkil etish, emotsional o'zini boshqarish, stressga qarshi kurashish va konstruktiv coping strategiyalarini rivojlantirish, agressiv xulq-atvorni kamaytirishga yo'naltirilgan psixokorreksion mashg'ulotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maslow, A. Motivation and Personality. New York: Harper & Row, 2004.
2. Немов, Р. С. Психология: Учебник для студентов. Москва: Владос, 2001.
3. Бодров, В. А. Психологический стресс: Развитие и преодоление. Москва, 2006.
4. Rosenzweig, P. F. Picture-Frustration Study Manual. 2005.
5. Spielberger, C. D. Anxiety: Current Trends in Theory and Research. Academic Press, 2002.
6. Rodgers, K. On Becoming a Person. Boston, 2001.
7. Lazarus, R. S., & Folkman, S. Stress, Appraisal, and Coping. Springer, 2004.
8. Sobirov, Y. (2023). O'smirlarda xavotirlanish hissi paydo bo'lishining psixologik aspektlari. Евразийский журнал академических исследований, 3(4 Special Issue), 142-146.
9. Sobirov, Y.E.O.G.L. (2022). O'smirlarda xavotirlanish hissi namoyon bo'lishining diniy-psixologik omillari. Academic research in educational sciences, (Conference), P. 219-222.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.